



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**МЕХАНИКАДА FAN TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
XALQARO ILMIY-TEXNIK ANJUMAN MATERIALLARI**

**ИНТЕГРАЦИЯ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА В
МЕХАНИКЕ: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ
МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**

**INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN
MECHANICS: PROBLEMS, SOLUTIONS AND PROSPECTS
PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
TECHNICAL CONFERENCE**

**QarDTU professori B.Donayev tavalludining
70 yilligiga bag'ishlanadi**



**1-3 MAY
2025-YIL**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**“MEKANIKA FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-TEXNIK ANJUMANI
2025 yil 1-3 may**

**ИНТЕГРАЦИЯ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА
В МЕХАНИКЕ: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ
*МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ*
1-3 мая 2025 года, г. Карши**

**INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION IN MECHANICS: PROBLEMS,
SOLUTIONS AND PROSPECTS
*INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL
CONFERENCE*
May 1-3, 2025, Karshi**

Qarshi - 2025

“Mexanikada fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallar to‘plami - Qarshi “Intellect” nashriyoti, 2025-yil.

To‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 490-sonli buyrug‘iga asosan Qarshi davlat texnika universiteti “Umumtexnik fanlar” kafedrasida 2025 yilning 1-3 may kunlari “Mexanikada fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-texnik anjuman ishtirokchilarining ilmiy maqolalari chop etilgan.

Anjumanning asosiy yo‘nalishlari – Qattiq jismlar mexanikasi va mexanika fanining rivojlanishidagi dolzarb muammolar; ishlab chiqarish bilan mexanika fanining integratsiyasi va uning yechimlari; hozirgi zamon texnologiyalarida nanomateriallarni olish va ishlatilish istiqbollari; zamonaviy mexanikaning dolzarb muammolari, yechimlari va uni o‘qitishda innovatsion yondashuv kabi muammolarga bag‘ishlangan ilmiy maqola va tezislarni jamlangan.

Mazkur to‘plam shu soha mutaxassislari, doktorantlar, magistrantlar, talabalar hamda mexanika faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalardagi ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

MUHARRIR:

Qurbanov Sh. t.f.f.d., dotsent

TAHRIR HAY’ATI:

Abdimuminov E. t.f.n., professor

Donayev B. t.f.n., professor

Irgashev D. t.f.f.d., dotsent

Nabiyev E. t.f.f.d., dotsent

Tovashov R. t.f.f.d., dotsent

Almardonov O. dotsent, texnik redaktor

Mazkur to‘plam Qarshi davlat texnika universiteti Kengashining 2025-yil 17-aprel №1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

fizik mexanik xossalari orasidagi o'zaro munosabatlarni bir me'yoriy holatga keltirish zarur.

Bir narsani ta'kidlash zarurki, ishlatilayotgan gruntlarning o'ziga xos xususiyatlari ya'ni muqobil namligi, maksimal zichligi va elastiklik moduli kattaliklari qiymatlari ishchi organlar tomonidan amalga oshirildaigan texnologik jarayonlarda talab etilgan zichlashtirish koeffitsientini ta'minlashi shart. Yuqorida keltirilgan talablarning bajarilishi foydalanilayotgan yo'llarning xizmat muddatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyqulov R.M., Maxmudova D.A. Avtomobil yo'llari: darslik.- Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2022. - 224 b.
2. Ю.Г.Бабаскин, И.Н.Вербилло.Технология дорожного строительства: Учеб. пособие. БНТУ, 2003. – 202 с.
3. Xudoyqulov R.M., Komilov S.I., Xankelov T.Q. Avtomobil yo'l poyida ishlatiladigan gruntlarni zichlashtirishda foydalaniladigan katoklarning o'rni. Mexanika va texnologiya ilmiy texnik jurnali, Namangan, 2023 y., №1, 205-212 b.
4. Rustamov K.J., Komilov S.I. Yer qazish va yo'l qurilish mashinalari konstruksiyasi. 2-modul. Hisoblash va loyihalash. o'quv qo'llanma. - Toshkent. Complex print nashriyoti 2022. – B 168-174.
5. Беляев К.В. Реологическая модель уплотнения асфальтобетонной смеси. Дорожно-транспортный комплекс, экономика, экология, строительство и архитектура: Материалы Международной научно - практической конференции. Книга 2.- Омск: Изд-во СиБАДИ, 2003. - С. 238-240.
6. И.С.Тюремнов, Д.А.Шорохов. Моделирование взаимодействия вибра-ционного катка с уплотняемым грунтом. Вестник СиБАДИ. Том 21, № 2. 2024. стр. 202-216.
7. Hankelov T.Q., Rustamov K.J., Komilov S.I. Application of rheological models in the study of compensation of road structure soils with cables. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 2023, 30, p.57-60.
8. В.И.Баловнев. Подобие и моделирование в системе проектирования дорожно-строительных машин: учеб. пособие– М.: МАДИ, 2014. - 148 с.

G'O'ZA QATOR ORALARIGA VA OCHIQ MAYDONGA EKILGAN KUZGI BUG'DOYNING TUPROQ FIZIK-MEXANIK XOSSALARIGA TA'SIRI

Mamadiyorov Obid Tursunovich

Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada dala tajriba sinovlariga asoslangan kuzgi bug'doyni g'o'za qator oralariga va ochiq maydonga yerga minimal ishlov berib ekish texnologiyalarining ta'sirida tuproqning 0-30, 0-50, 0-70 va 0-100 cm qatlamlarida tajriba dalasi tuprog'ining hajm og'irligi va g'ovakligi variantlarda o'zgarishining miqdorini aniqlash natijalari keltirilgan. Tajribalarda tuproq g'ovakligining kamayishi kuzgi bug'doyni ekish texnologiyasiga bog'liq holda g'o'za qator orasiga ekish texnologiyasi bo'yicha va haydalgan dalaga ekish texnologiyasi bo'yicha o'zgarishlar natijalari o'zoro taqqoslangan.

Tayanch so'zlar: Kuzgi bug'doy, ishlov berish, tuproq strukturasi, samaradorlik, vegetatsiya, intensiv, eroziya.

Аннотация. В статье представлены результаты полевых испытаний по количественной оценке изменения плотности сложения и пористости почвы опытного поля в слоях 0-30, 0-50, 0-70 и 0-100 см под влиянием технологий посева озимой пшеницы в междурядьях хлопчатника и на открытых полях с минимальной обработкой почвы. В опытах сравнивали результаты изменения пористости почвы в зависимости от технологии посева озимой пшеницы, по технологии посева хлопчатника в междурядья и по технологии посева по вспашке.

Ключевые слова: Озимая пшеница, обработка почвы, структура почвы, эффективность, вегетация, интенсивная, эрозия.

Abstract. The article presents the results of field tests on the quantitative assessment of changes in the bulk density and porosity of the soil of the experimental field in the layers of 0-30, 0-50, 0-70 and 0-100 cm under the influence of winter wheat sowing technologies in the rows of cotton and in open fields with minimum soil tillage. The experiments compared the results of changes in soil porosity depending on the technology of winter wheat sowing, the technology of cotton sowing in the rows and the technology of sowing after plowing.

Keywords: Winter wheat, tillage, soil structure, efficiency, vegetation, intensive, erosion.

Kirish. Respublikamizda agrosanoat majmuida kuzgi bug'doyni sug'orish tartibi va texnikasi elementlarini dala sharoitiga mos, to'g'ri belgilashga imkon beradigan tejamkor texnologiyalar, sug'orish tartiblarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 3-ustivor yo'nalishi bo'yicha (milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash) 30-maqsadida: **“Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish” belgilab berilgan** [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan respublikaning sug'oriladigan maydonlarida kuzgi bug'doyni minimal ishlov berish texnologiyasi asosida yetishtirish samaradorligini tajribalar o'tkazib aniqlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Qishloq xo'jalik ekinlari uchun tuproqlar o'zlashtirilgach, uning unumdorligi, uning madaniylashtirishga qaratilgan tadbirlarining sur'atiga bog'liq holda o'zgaradi. Madaniy ekinlarni yetishtirishda tuproqqa har doim uchta asosiy omil ta'sir ko'rsatadi. Bular, tuproqni mexanik ishlash, tuproqqa beriladigan o'g'itlar va yetishtirilayotgan madaniy o'simliklarning o'zlari ta'sir etadilar. Bu omillar o'simliklarni o'sish davrida tuproqqa maqbul, kulay suv-havo va oziqlanish rejimlarini vujudga keltirishlari mumkin. Shu bilan bu omillarning har biri tuproqqa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tuproqqa mexanik ishlov berish, strukturaning buzilishiga va gumusning minerallashuviga, hosil bilan birga tuproqdan oziqa elementlarining chiqib ketishiga ko'maklashadi, ortiqcha o'g'it berishlar esa tuproqlarni ifloslantiradi va hokazo [2-8].

Masalaning qo'yilishi va tadqiqot usuli. Tuproq strukturasining buzilishi va tuproqning o'ta zichlanishi haddan tashqari qurib qolgan tuproqlarga ishlov berishda ham sodir bo'ladi. Tuproqda o'ta kuchli zichlanish qishloq xo'jalik mashinalarining, har xil qurol-aslaxa va traktorlarning ta'sir etishidan sodir bo'ladi. Natijada ekinlar hosildorligi keskin pasayadi. Dalani shudgorlash vaqtida yirik kesaklar hosil bo'lishi sababli dala yuzasi notekislashadi. Umuman kuzgi bug'doy ekiladigan dala qancha notekis va past-baland bo'lsa, uni sug'orish qiyinlashadi, suv ko'llab, eroziya hosil bo'ladi. Urug' unib chiqishi bir hilda tekis bo'lmasdan, ko'chat siyraklashadi. Shu sababli yerni yuza yumshatish, tuproqni mayin qilish hamda uni haydov qatlamida havo almashinuvini yaxshilash uchun yer boronalanib, mola bosiladi.

Tuproqning o'ta zichlanishi suv eroziyasining kuchayishiga va uning fizik xossalari o'zgarishiga olib keladi, tuproqning hajm og'irligi $1,3-1,7 \text{ g/cm}^3$ gacha ortadi, haydalganda yirik kesakli palaxsalar vujudga keladi. Almashlab ekishda ko'p yillik o'tlarning bo'lmasligi va gumusning yo'qotilishi bu holatlarni yanada kuchaytiradi. Tuproqning nafas olishi yomonlashadi, suv o'tkazuvchanlik (50-100 martagacha) kamayadi. Suvning tuproqqa normal singishi keskin pasayadi. Suvning yer usti oqimi va tuproqning mayda zarrachali qismlarining yuvilishi kuchayadi, biologik jarayonlar sustlashadi. Bu jarayon ayniqsa joyning relefiga bog'liq bo'ladi. Relefi tekis, yer usti suv oqimlarining ortishi, suv o'tkazuvchanlikning u bilan ta'minlashning va nam suv zaxiralarining yomonlashuvi oqibatida konus yoyilmalarining suv tarqatgich va ko'tarilgan tiknishablik yerlarida tuproqning o'ta zichlanishi fiziologik foydali namning tanqisligiga, uning qurib qolishiga, o'simliklar so'lish koeffitsientining o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi [9].



1-rasm. Dala yuzasini tekislash jarayoni

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ekinlarning o'sishi va rivojlanishi tuproqning hajm massasiga (zichligiga) bevosita bog'liq. G'o'za qator orasiga kuzgi bug'doy ekish texnologiyasida tuproqning agrofizik xususiyatlari o'rganildi. Tuproqning hajm massasi g'o'za qator orasiga kuzgi bug'doy ekilgandan keyin 0-100 cm qatlamda kuzda aniqlandi 1 va 2-jadvallar. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, barcha variantlarda sug'orish tartiblari vegetatsiya davrining oxiriga kelib tuproqning hajm massasi oshib borganligini ko'rsatdi. Tuproqning yana bir muhim agrofizik xossalaridan biri uning g'ovakligi hisoblanadi. Tuproqni g'ovaklik darajasi yuqori bo'lsa, havo almashinuvi yaxshilanadi, mikrobiologik jarayonlarni o'tishi tezlashadi, issiqlik tartiblari ijobiy tomonga o'zgaradi, natijada tuproqning unumdor bo'lishiga ma'lum sharoit yaratiladi. Tadqiqotlarimizda olingan natijalarda ham yuqoridagi qonuniyatlar kuzatildi. Tajribada tuproqning g'ovakligi ko'rsatkichlari hajm massasiga teskari bog'liqlikda bo'ldi va bahorda haydov (0-30 cm) qatlamida 48,9 % ni, 30-50 cm haydov osti qatlamida 49,0 % ni tashkil etdi. Tuproqning haydov qatlami dalani ekishga tayyorlash, ekish, g'o'za qator orasini kultivatsiya qilish, egat olish, vegetatsiya davridagi sug'orishlar va boshqa moslamalarining ta'siri natijasida hamma variantlarda tuproq g'ovakligini biroz kamayganligi kuzatildi. Shunga muvofiq, vegetatsiya davri oxirida tuproqning 0-30 va 0-50 cm qatlamlarida haydalgan dalaga ekish texnologiyasi tajriba dalasi tuprog'ining hajm og'irligi va g'ovakligi variantlarda tuproqning g'ovakligi 1,37/56,5-1,43/52,4 % dan 1,32/51,2-1,36/49,5 % gacha va g'o'za qator orasiga ekish texnologiyasi tajriba dalasi tuprog'ining hajm og'irligi va g'ovakligi 1,37/49,4- 1,43/46,9 % dan 1,41/47,6-1,47/45,5 % gacha tashkil qildi.

1-jadval

Haydalgan dalaga ekish texnologiyasi tajriba dalasi tuprog'ining hajm og'irligi va g'ovakligi (uch marta olingan natijaning o'rtachasi)

Qatlam, cm	Vegetatsiya boshida g/cm ³ , %		Vegetatsiya oxirida g/cm ³ , %	
0-10	1,05	60,6	1,24	53,6
10-20	1,10	58,8	1,25	53,2
20-30	1,34	49,8	1,43	46,6
30-40	1,41	47,1	1,42	46,9
40-50	1,47	45,1	1,43	46,7
50-60	1,42	47,0	1,42	46,9
60-70	1,37	48,7	1,35	49,6

70-80	1,30	51,4	1,27	52,4
80-90	1,35	49,5	1,32	50,5
90-100	1,32	50,6	1,29	51,6
0-30	1,16	56,5	1,31	51,2
0-50	1,28	52,3	1,35	49,4
0-70	1,31	51,0	1,36	49,1
0-100	1,31	50,9	1,34	49,8

2-jadval

G'oz qator orasiga ekish texnologiyasi tajriba dalasi tuprog'ining hajm og'irligi va g'ovakligi (uch marta olingan natijaning o'rtachasi)

Qatlam, sm	Vegetatsiya boshida g/cm ³ , %		Vegetatsiya oxirida g/cm ³ , %	
0-10	1,24	53,7	1,31	51,2
10-20	1,34	49,8	1,38	48,3
20-30	1,49	44,4	1,52	43,3
30-40	1,57	41,3	1,60	40,7
40-50	1,48	44,6	1,51	43,9
50-60	1,40	47,5	1,41	47,5
60-70	1,39	48,1	1,38	48,6
70-80	1,36	49,1	1,38	48,6
80-90	1,35	49,5	1,36	49,1
90-100	1,33	50,4	1,33	50,4
0-30	1,36	49,3	1,40	47,5
0-50	1,42	46,8	1,46	45,4
0-70	1,42	47,1	1,44	46,2
0-100	1,40	47,8	1,42	47,1

Shuningdek, tuproqning 0-70 va 0-100 sm qatlamlarida haydalgan dalaga ekish texnologiyasi tajriba dalasi tuprog'ining hajm og'irligi va g'ovakligi variantlarda tuproqning g'ovakligi 1,32/51,1-1,32/51,0 % dan 1,37/49,2-1,35/49,9 % gacha va g'oz qator orasiga ekish texnologiyasi tajriba dalasi tuprog'ining hajm og'irligi va g'ovakligi 1,43/47,2-1,41/47,9 % dan 1,45/46,3-1,43/47,2 % gacha o'zgarganligi kuzatildi.

Xulosa. Tajribalarda tuproq g'ovakligining kamayishi kuzgi bug'doyni ekish texnologiyasiga bog'liq holda g'oz qator orasiga ekish texnologiyasi bo'yicha 0,9 % ga va haydalgan dalaga ekish texnologiyasi bo'yicha 1,1 % o'zgarganligi kuzatildi. Tuproqning hajm og'irligi uning boshqa agrofizik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, hajm og'irlikni ortib ketishi struktura tarkibiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuproq strukturasi yomonlashuvi esa uning suv o'tkazuvchanligini hamda suv-havo almashinuvining buzilishiga olib keladi. Bu o'z navbatida o'simliklarni normal o'sib rivojlanishiga to'sqinlik qilib, ular hosildorligini pasayishiga sabab bo'ladi. Struktura tuproqning muhim agronomik xossalaridan biri bo'lib, tuproqning bir qancha fizik-mexanikaviy xossalarini va suv-havo, issiqlik, oziq tartiblarining yaxshilanishiga hamda mikrobiologik jarayonlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Strukturali tuproqlarda o'simliklar uchun sharoit yaxshi bo'lganligidan ekinlardan mo'l hosil olish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida 28.01.2022-yildagi PF-60-son.
2. Irgashev, D. B., AR, R. T., & Sadikov, O. T. (2022). Mamadiyorov. Technical Analysis of Plug Software When Working Between Gardens. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 9(5).

3. Batirov, Z., Sharipov, S., Mahmudov, Y., Azizov, S., & Mamadiyrov, O. (2021). Traction resistance of a ripper with a current distribution line. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 04050). EDP Sciences.
4. Irgashev, D., Mamadiyrov, O., & Xidirov, M. (2022). Technical analysis of the disk working bodies that work the soil and them working between the garden row. Science and innovation, 1(A5), 150-155.
5. To'rayev, S. M., & Mamadiyrov, O. T. (2024). G'o'za qator oralariga kuzgi bug'doy ekish uchun tuproqqa ishlov berishning yangicha usullari. research and education, 3(9), 48-54.
6. Boynazarov, U. R., & Mamadiyrov, O. T. (2021). Korroziionnaya stoykost oksinitridnykh sloev. Aspirant, (4), 37-42.
7. Mamadiyrov, O. T. (2023/12/30). "G'o'za qator oralariga kuzgi bug'doy ekish uchun tuproqqa ishlov berish texnologiyasi". Innovative Development in Educational Activities, 2(24), 176-181.
8. Mamadiyrov, O. T. (2024). Improvement of Soil Tillage Technologies for Planting Winter Wheat Between Cotton Rows. American Journal of Open University Education, 1(10), 146-151.
9. Utaev A.A., Tog'aev Sh.M. "Ochiq maydonga va g'o'za qator orasiga ekilgan kuzgi bug'doyning tuproq hajm massasi va g'ovakligiga ta'siri". <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/21301/14258/19793>

DISKRETLASH ZONASIDAGI BARABANCHA TISHLARI BILAN ILASHISH ORQALI TOLALARNING HARA-KATINI DINAMIK TAHLIL QILISH

Mirzayev Otabek Abdulkarimovich
Fayzullayev Xayriddin Alimurodovich
 Qarshi davlat texnika universiteti
Bexbudov Shavkat Xuseynovich
 Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya. Maqolada tavsiya etilgan pnevmatik yigiruv mashinasining diskretlovchi barabanchasining ishchi kamerasida sifatli ip olish uchun tolalarni yigiruv kamerasiga tekis uzatishni amalga oshirishni ta'minlaydigan konstruksiyasi va parametrlarini dinamik tahlil qilish talab etiladi. Natijada olinadigan ipning sifati pasayadi. Shu sababli, aerodinamik qonunlarning o'zi yaxshi natija bermasligi sababli, sifatli ip olish uchun tolalarni yigiruv kamerasiga tekis uzatishni amalga oshirishga mo'ljallangan konstruksiya va parametrlarni dinamik tahlil qilish zarurligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Diskretlovchi baraban, ishchi kamera, tola, yigiruv, garnitura, tish, pnevmomexanik, ip, hajm, aerodinamika.

Аннотация. В статье требуется провести динамический анализ конструкции и параметров дискредитирующего барабана предлагаемой в рабочей камере пневмопрядильной машины, обеспечивающего равномерную передачу волокон в прядильную камеру для получения высококачественной пряжи. В результате снижается качество получаемой пряжи. Таким образом, поскольку одни лишь аэродинамические законы не дают хороших результатов, необходимо проводить динамический анализ конструкции и параметров, обеспечивающих равномерный перенос волокон в прядильную камеру с целью получения высококачественной пряжи.

Ключевые слова: волокно, рабочая камера, дискредитирующего барабана, объема, зуба, пряжа, аэродинамика.

Abstract: The article requires a dynamic analysis of the design and parameters of the sampling drum proposed in the working chamber of the pneumatic spinning machine, which

2-SHO‘BA: ISHLAB CHIQUARISH BILAN MEXANIKA FANINING INTEGRATSIYASI VA UNING YECHIMLARI

43	Alimova.Z., Pulatov .S. Avtomobil dvigateli yuqori changli havo sharoitida ishlaganda motor moylarining xizmat qilish muddatiga ta'sir qiluvchi omillar	207
44	Karimov K.A., Shaxobutdinov R.E., Karimova A.R. Ishlab chiqarish korxonalaridagi muammolarning ilmiy va amaliy yechimlari	211
45	Komilov S. Zichlashtirish jarayonini tadqiq etishda reologik modellarni qo'llash	214
46	Mamadiyorov G'O. G'o'za qator oralariga va ochiq maydonga ekilgan kuzgi bug'doyning tuproq fizik-mexanik xossalariga ta'siri	218
47	Mirzayev O., Fayzullayev X., Bexbudov Sh. Diskretlash zonasidagi barabancha tishlari bilan ilashish orqali tolalarning harakatini dinamik tahlil qilish	222
48	Rashidov N.SH., Saidov.N.I., Safarov.A. Sferik diskning maqbul parametrlarini asoslash	228
49	Чуянов Д.Ш., Равшанов. Н.Қ., Ортиков В.Б. Обоснование конструктивной схемы плуга для гладкой вспашки между садовых рядов	233
50	Ravshanov N.Q. Plug korpusining tuproq palaxsasini aylantirish jarayoni	237
51	Razzaqov T.X, Karimova K.G'. Tormozlash paytida avtomobil harakati tenglamasi	240
52	Usipbayev U.A., Mustapaqulov S. Texnik mexanika fanining ishlab chiqarishdagi o'rni	243
53	Sharipov Sh. Strukturaviy va kinematik sixemani manipulyatorlarda qurish	245
54	Темиров И. Г. Результаты экспериментальных исследований плуга для вспашки хлопковых полей	248
55	Toirov M., Karimov K. Reduktorni harakat uzatuvchi mexanizmlari va materilallarining mexanik xossalarini tahlil etish	250
56	Tursunov Sh., Numonova N. Dvigatellarda ishlatiladigan moylarning ishlash sharoitlari	256
57	Tursunov Sh., Hayitova N. Motor moylarining qo'llanilishi va ularning ishlash muddatini oshirish usullari	259
58	Urunov A. Mashinasozlikda ishlatiladigan ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar	262
59	Urunov A. Aylanma harakatni uzatuvchi mexanizmlar turlari va ularga qo'yiladigan texnik talablar	265
60	Уришев Б., Куватов У., Бозоров Э.М., Янгибоев Л.И. Талимаржон сув омборининг гидроэнергетик кувватидан фойдаланиш	269
61	Лямин А., Носиров М. Определение коэффициента полезного действия редукторов в лабораторных условиях	273
62	Нурова О. Разрушения плит из армированного битона	277
63	Xabibov F., Murodov K. Transport vositasi harakati mexanik energiyasini elektr energiyaga aylantirish qurilmasining simulyatsiya modeli	280

Muharrir: B. Musayev
Kompyuterda sahifalovchi: F. Akramova

Bosishga ruxsat etildi: 25.04.2025 y.
Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16.
"Cambria" gar. Ofset bosma.
Hisob nashriyot t.: 35,17. Shartli b. t.: 35,25.
Adadi: 30 nusxa. Buyurtma №5

QarDTU kichik bosmaxonasida chop etildi.
180100. Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225 – uy.
Telefon 91-466-80-32.